

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ALISHER NAVOIY TANQIDCHILIGIDA USLUB

Nasima Qodirova

Buxoro davlat universiteti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

E-mail: n.s.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya: *Maqolada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi munaqqid uslubi nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Xususan, Alisher Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlarida til, ohang, obyektga munosabatning namoyon bo‘lishi, dalillashdan foydalanish kabi bir qancha uslub elementlariga ahamiyat qaratilgan. Navoiyning mazkur asari o‘zbek adabiyotshunosligida adabiy-tanqidchilik muammolariga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqot ekanligi xususida mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tazkira, munaqqid, uslub, mahorat, dalillash, o‘ziga xoslik.*

Аннотация: *В статье с точки зрения критического стиля анализируется тазкира Алишера Навои “Мажолис - ун нафоис”. В частности, в литературно-критических взглядах Алишера Навои большое значение придается нескольким стилистическим элементам, таким как язык, тон, проявление отношения к предмету, специфика использования аргумента. Отмечается, что данная работа Навои является первым исследованием, посвященным проблемам литературная критика в узбекском литературоведении.*

Ключевые слова: *тазкира, критика, стиль, мастерство, аргумент, оригинальность.*

Annotation: *The article analyzes Alisher Navoi’s tazkira “Mazholis - un nafois” from the point of view of critical style. In particular, in the literary critical views of Alisher Navoi, great importance is attached to several stylistic elements, such as language, tone, manifestation of attitude to the subject, and the specifics of the use of argument. It is noted that this work by Navoi is the first study devoted to the problems of literary criticism in Uzbek literary criticism.*

Key words: *tazkira, criticism, style, skill, argument, originality.*

Alisher Navoiy o‘zigacha bo‘lgan turk, fors-tojik hamda arab adabiyotshunosligi va tanqidchiligining barcha yutuqlari va ijobiy jihatlarini o‘zlashtirgan va o‘zbek tanqidchiligini bir bosqichga ko‘targan. Uning “Majolis – un nafois” asari o‘zbek tilidagi dastlabki tazkira, ayni vaqtda o‘zbek adabiyotshunosligida adabiy tanqidga doir ilk tadqiqot sanaladi. Mazkur asar ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsada, uning diqqatga molik, o‘rganilishi muhim bo‘lgan bir qancha jihatlar bor. Mazkur maqolada Alisher Navoiy tanqidiy qarashlarining uslubiy xususiyatlari haqida so‘z yuritimiz.

Adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov o‘zining “Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari” nomli tadqiqotida mazkur tazkiraning adabiyotshunosligimizdagi o‘rni, asarning tuzilishi, unda diqqat qaratilgan asosiy masalalariga batafsil to‘xtalgan. Shuning bilan birga olim Navoiyning uslubiga xos ayrim xususiyatlarga ham e‘tibor qaratadi. Jumladan, asarning shakl va mazmun uyg‘unligida Navoiy uslubiga jiddiy e‘tibor berilishini qayd qilib o‘tadi[1].

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Munaqqid uslubi ko‘plab unsurlarning birikuvida namoyon bo‘ladi. Masalan, ohang ya‘ni til, obyektga munosabat, kitobxon bilan munosabat, dalillash mahorati, fanlararo integratsiya va boshqalar. A.Navoiy uslubida obyektga munosabat o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Chunonchi, u o‘zi sevgan, hurmat qilgan insonlar, jumladan, hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan ustozlari, do‘stlari haqida gapirganda ularga muhabbati yoqqol sezilib turadi. Fikrlar yuqori pafosda, tahlillar anchayin keng va rang-barang beriladi. Buni xususan, Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan sakkizinchi majlisida ko‘rishimiz mumkin. Bunda Navoiyning Husayn Boyqaro ijodi va shaxsiyatiga nisbatan subyektiv munosabati sezilib turadi. Munaqqid uni tanishtirishda ko‘plab mubolag‘alar, o‘xshatishlar, ritorik so‘roqlardan foydalanadi: “... har kim, ul tarixni mutolaa qilsa, anglag‘aykim, Jamshid va Iskandar aning ham bilganlaridin, ham qilg‘onlaridin sharmandadur... Va yuqorig‘i so‘z uslubi taqozoi ul qilurkim, ul hazratning latoyifi tab‘idin bir necha matla’ bila bu avroqqa zeb va ziynat qilg‘ay va natoyiji zehnidin bir necha bayt bila bu ajzog‘a qadru qiymat berilgay va har oshiqona matla’ bila dard ahli jonig‘a shu‘layi fano yoqilg‘ay va har dardmandona bayt bila ishq ahli ko‘nglig‘a barqi balo chaqilg‘ay”[2]. Mazkur parchada Husayn Boyqaro shaxsiyati va ijodiga nihoyatga yuqori baho berilishi Navoiyning mamlakat podshosiga va u orqali o‘zi mansub davlat va hukumatga bo‘lgan munosabatini ham ifodalaydi.

Biroq bu Navoiyning tanqidiy qarashlari subyektiv xarakterda degani emas. U ijodkorlar haqida fikr bildirganda obyektiv bo‘lishga intiladi. O‘sha ijodkor haqidagi boshqalarning fikrlari bilan o‘rtoqlashadi, baytlarini tahlil qilib, o‘z xulosasini bayon etadi. Bu jihatdan munaqqidning Sakkokiy ijodi borasidagi qarashlari ahamiyatli. Sakkokiy saroy shoiri bo‘lganligi tufayli o‘z davrida juda mashhur va hurmatli kishilardan edi. Navoiy Samarqand ahli uni nihoyatda ta‘rif etishlarini ta‘kidlaydi, biroq uning ijodi munaqqidni qoniqtirmaydi. Shoir she‘riyatiga nisbatan “ta‘rif qilg‘onlaricha nima zohir bo‘lmadi”[3] deya dadil ta‘kidlaydi. Munaqqid nazdida har bir ijodkorning o‘ziga tegishli yangiligi, badiiy ixtirosi bo‘lishi lozim. Ammo Navoiy bu yangilikni Sakkokiy ijodida topa olmaydi.

Yoxud, Navoiyning obyektiv tanqidiy qarashlarini Mavluni Binoiy ijodiga bag‘ishlangan qarashlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Bir qator adabiyotlarda ushbu ijodkor bilan Navoiyning biroz adovati bo‘lganligi aytilsada, tazkirada Navoiy munaqqid sifatida Binoiy she‘riyatiga yuqori baho berganligi ko‘rinadi. Demak, Navoiy tanqidchi sifatida har bir ijodkorga obyektiv baho berishga, uning ijodini badiiyat mezonlari asosida xolis baholashga intilgan. Bu esa Navoiy uslubini belgilovchi muhim xususiyatlardan biridir. “Majolis – un nafois”da Navoiy o‘z davri adabiy jarayonini yoritishda uni san‘atning boshqa turlari bilan bog‘liq holda rivojlanayotganligini, ayrim

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ijodkorlarning musiqa, soz chalishga doir mahoratlari, muammo fanida o‘tkirliigi, mazax va mutoyibaga mohirligiga munosabat bildirish orqali ko‘rsatib beradi. Bu ham munaqqid Navoiyning fanlararo integratsiyani qo‘llashdagi o‘ziga xosligi va uslubiga ta’sir etuvchi unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, Pahlavon Muhammad Go’shtigir haqida gapirganda uning “musiqiy va advor ilmida davrining benaziri”[4] ekanligi, Mavlono Sher Alining “nashta’liq” xatin andoq bitadikim, hech kishi taqlid qila olmas”ligi, Mavlono Sulton Ali “nasx ta’liq” xatida qiblat ul-kuttobdur va kitobat mulkining qalamravi yak qalam anga musallam”[5]igi, Hofiz Sharbatiyning “xushxonliqda faridi zamona”[6] ekanligiga ham diqqat qaratiladi. Xoja Kamoliddin Udiy “zarif kishi erdi va o‘z zamonining xushnavozi erdikim, barcha xaloyiq ani musallam tutar erdilar”[7] deya uning musiqaga oshnoligi she’riyatiga ham ta’sir etishi, ya’ni “tab’i ham she’rig’a muloyim” ekanligiga ahamiyat qaratiladi. Umuman olganda, fanlararo integratsiya orqali nafaqat Navoiy uslubining bir qirrasi, balki o‘sha davr ijodiy hayoti yanada kengroq namoyon bo‘ladi.

Munaqqid uslubini ko‘rsatuvchi ko‘plab unsurlar bo‘lib, ular biri dalillash mahoratidir. Alisher Navoiy ilk o‘zbek munaqqidi sifatida o‘zining “Majolis –un nabois” tazkirasida taqdim etayotgan ma’lumotlarini ishonchliligini oshirish maqsadida dalillashdan keng foydalangan. U ma’lum ijodkorga baho berar ekan, asosan, fikrlarini badiiy dalillaydi, o‘sha shoir ijodidan misollar keltiradi. Navoiy Mavlono Kotibiy haqida ma’lumot berar ekan shunday deydi: “ ... o‘z zamonining benaziri erdi. Har nav’ she’rg‘aki, mayl ko‘rguzdi, anga maoniyi g‘ariba ko‘p yuzlandi”. Ushbu ma’lumot Navoiyning Kotibiy haqidagi xulosasi va buni quvvatlash uchun munaqqid dalillashdan quyidagicha foydalanadi: “Bu faqirning xayolig‘a andoq kelurkim, Mavlono Kotibiyda she’r saliqasi oncha bor ekandurkim, bizning Sulton Sohibqirondek suxandon podshoh anga murabbiy bo‘lsa erdi va umri dag‘i biror nima vafo qilsa erdi ko‘p elning ko‘nglin she’r aytmoqdin sovutqay erdi”[8]. Dalillashda mazmun jihatidan mantiqiy va estetik (mubolag‘adan foydalanilgan) dalilning sinkretikligini, shaklan esa o‘z fikri orqali amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin.

Alisher Navoiy tanqidiy qarashlarida dalillashning badiiy usulidan keng foydalanganligi uning shoirligi va yashagan davri bilan bog‘liq. Chunki bu davrda tanqidiy fikrlar, asosan, turli janrdagi asarlar tarkibida va badiiy tarzda berilar edi. “Majolis –un nabois” tazkisasi adabiy-tanqidiy asar bo‘lsada, unda ulug‘ shoirning adabiy-estetik qarashlari badiiy tasvirlarda beriladi. Navoiy, ayniqsa, do‘sti Husayn Boyqaro haqida gapirganda to‘lqinlanib yozadi. Har bir fikrini turli taqqoslarda, izchil mantiqiylik bilan dalillaydi. Masalan, quyidagi parchada H.Boyqaro baytlari Mavlono

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Lutfiy bilan qiyoslanadi. Bu qiyos, albatta, dalillashning o‘ziga xosligi bo‘lib, shu orqali Boyqaroning yetuk shoirligi asoslanadi:

*“Xattining tori tushubtur la’li maygun ustina,
Uylakim, jon rishtasi bir qatrayi xun ustina.*

Basirat ahli qoshida zohirdurkim, tafovut ne chog‘likdur. Ne uchunkim, Mavlono yuzni jannatqa nisbat qilubdur va bu munosib tashbihdur. Bovujudi bu ikki misra’ bir-biriga marbut emas va javobi bovujudi g‘arobati ma’ni ikkalasi bir-biriga muvofiq va alfozi bir-birining muqobalasida loyiq voqe’ bo‘lubtur... Mundin nazm tavrida g‘oyati quvvat ma’lum bo‘lur”[9].

Dalillashda badiiylilikning ustunligi asar tilining ham o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi. Kinoya va latifilardan foydalanish, satira va yumorning qo‘llanilishi Navoiy adabiy-tanqidiy mulohazalarining yanada jonli, o‘qimishli bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, bularning mahorat bilan qo‘llanilishi, tanqidchiga asar haqidagi o‘z fikrlarini yanada ta’sirchan ifodalashga yordam beradi, hazil ohangi Navoiy mulohazalarini o‘quvchiga yanada qiziqarli va esda qolarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Qolaversa, satira va yumorning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi tanqidchining asar yoki ijodkorga munosabatini bildirishda ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ularini yanada samaraliroq ifodalashga ko‘maklashadi. Masalan, Navoiy Mir Murtoz haqida ma’lumotlarida uning nima ishga qo‘l ursa qattiq kirishishini ta’kidlaydi, jumladan, ilm olish, kitob o‘qish, namoz o‘qish va shatranj o‘ynashga haddan ortiq berilganini aytadi va firklarini yumor orqali quyidagicha ifodalaydi: “...shatranjg‘a andoq mag‘lubdurkim, bir harif ilgiga tushsa, xalos bo‘la olmas. Bu jihatdin hariflar andin qocharlar. Mashhurdurkim, agar ikki harif ilgiga tushsa, biri bila o‘ynab, yana birining etagin berk tutib o‘ltururkim, biri qochsa, bori biri ilgida bo‘lg‘an. Ba har taqdir andoq benazir kishi oz bo‘lg‘ay”[10]. Matndan Navoiyning ushbu ijodkorga nisbatan do‘stona va samimiy munosabati, uning har bir ishni berilib, sidqidildan bajarishiga simpatiyasi ko‘rinadi. Yumor orqali bu yanada yonqinroq ifodalanadi. Ko‘rinadiki, yumorning qo‘llanilishi asar yo ijodkor haqidagi munaqqid fikrlarini yanada samimiy ifodalashga yordam beradi va o‘quvchiga tanqidiy matnni va tanqidchining asarga munosabatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy har bir mulohazasini dalillash orqali kitobxonni o‘z xulosalariga ishontirishga intiladi. Dalillarning izchil va mantiqli ekanligi, ularning go‘zal til bilan ifodalanishi tufayli bu asar bu kungacha o‘zining ilmiy va badiiy qimmatini yo‘qotmay kelmoqda.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Тошкент—1997, “Фан”.
www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. Тошкет-1959.